

RISHTON KULOLCHILIK TERMINOLOGIYASIGA OID BIRLIKLARNING NOMLANISH TAMOYILLARI

Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Zilolamsmstqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasb-hunar terminologiyasi, uning tilshunoslikda tutgan o'rni yoritilgan. Rishton kulolchilik terminlarning nomlanish tamoyillari va uning asoslari misollar yordamida izohlangan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, kasb, kulolchilik leksikasi, o'xshatish tamoyili, xoslash tamoyili, nisbat berish tamoyili, materialiga ko'ra nomlash tamoyili, ovozigacha ko'ra nomlash tamoyili, vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili, o'rniga ko'ra nomlash tamoyili, tashqi shakl va holatiga ko'ra nomlash tamoyili, o'lchoviga ko'ra nomlash tamoyili, jarayon, harakat e'tibori bilan nom berish tamoyili, urf-odatlar bilan bog'lab nom berish tamoyili, mifik tushunchalar va afsonalar bilan bog'lab nomlash tamoyili...

O'zbek kulolchilik terminlarining yuzaga kelish tarixi uning ijodkori bo'lgan xalq tarixi bilan hamohang sifatda shakllanib boradi. Tilshunos olim V.Vinogradov bu haqida shunday ta'kidlaydi: "Tilning lug'at tarkibi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot jarayonida tarkib topadi va rivojlanadi. Til tarixini xalq tarixidan ajratib olib, uni alohida o'rganish mutlaqo mumkin emas. Tildagi har bir so'zda jamiyat hayotining barcha jihatlari to'g'ridan-to'g'ri va bevosita aks etgan bo'ladi".¹¹¹ Ajdodlarimizning ko'p asrli xalq amaliy san'ati natijasida vujudga kelgan kulolchilik terminlarini to'plash va tartibga solish, tilshunoslikka oid ishlarda ulardan nazariy va amaliy foydalanish adabiy til me'yorlarini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kulolchilik terminlarining leksik-semantik tuzilishining tahlili shuni ko'rsatadiki, terminlar kasb-hunar egalarining narsa va hodisalarga ularning belgilarini to'g'ridan to'g'ri tushunish hamda boshqa narsa va hodisa belgilariga o'xshatib, qiyoslab, obrazli tushunish yo'li orqali nomlanadi. S.Ibrohimovning fikricha, umumiste'mol birliklarning terminologik mohiyat kasb etishi, uning mavjud ma'nolari asosida yangi terminologik ma'noning yuzaga kelishi quyidagi asoslarda vujudga keladi:

¹¹¹ Виноградов В.В. Об основном словарном фонде и его словообразующей роли в истории языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография. - Москва: Наука, 1977. - С.47.

1) o'xshatish prinsipi asosida (inson va uning a'zolariga o'xshatish, hayvon a'zolariga o'xshatish, qushlar va ularning a'zolariga o'xshatish, hashorat va mayda jonivorlarga o'xshatish, o'simlikka o'xshatish, turli xil asbob va qurollarga o'xshatish, samoviy jismlarga o'xshatish;

2) xoslash prinsipi;

3) nisbat berish prinsipi (qabila va xalq nomiga nisbat berish, shaxs nomiga nisbat berish);

4) materialiga ko'ra nomlash prinsipi;

5) vazifasiga ko'ra nomlash prinsipi;

6) o'rniga ko'ra nomlash prinsipi;

7) tashqi shakl va holatiga ko'ra nomlash prinsipi;

8) ovozigiga ko'ra nomlash prinsipi¹¹².

Rishton kulolchilik terminlarini yuqorida qayd etilgan qarashlardan foydalanib tahlilga tortdik. Chunonchi:

I. **O'xshatish tamoyili.** Kulolchilik buyumlari va bu sohada ishlatiladigan terminlarning aksariyati o'xshatish tamoyiliga asoslanadi. Bunda o'xshatish quyidagicha bir necha turlarga ega:

1. **Inson va uning a'zolariga o'xshatish:** *piyolaning labi, choynakning og'zi, ko'zaning bo'yni, xumchaning qorni.* M: *Qo'shquloq*- sopol idishlarning sut quyiladigan, qatiq ivitiladigan va dalaga osh quyib olib boriladigan turi bo'lib, bu idishlarning bo'yi past, ichi toypoq, sayoz, osti to'garak, poshnali ko'rinishga ega.

2. **Hayvon va parrandalarning a'zolariga o'xshatish:** choynakning tumshug'i, dumi kaptar, tuyatovon – sopol idishlarga berilgan naqshning bir turi

3. **Poyabzal qismiga o'xshatish:** *kosaning poshnasi, piyolaning poshnasi, poshna chiqarish.*

4. **O'simlikka o'xshatish:** *sepoya- sebarga o'simligini bargi shaklidagi, uch quloqli, yupqaroq sopol asbob*

5. **Turli xil asbob va qurollarga o'xshatish:** Kulolchilikda idishga chekma xol tushirish uchun yog'ochdan uzunchoq shaklda qolip yasashadi uni *taraq* termini bilan nomlashadi. Uning yuzi soch taraydigan taroqning tishlari shaklida bo'ladi. Bu gulni ham, qolipning nomi bilan taroq nomlashadi.

6. **Samoviy jismlarga o'xshatish:** Kasb-hunar leksikasida narsalarni samoviy jismlarga o'xshatib yasash emas, ularga tushirilgan naqshlar nomida uchratamiz. Chunonchi, yulduz gul – idishlarga solinadigan naqsh elementlaridan biri bo'lib, yetti tomonga gultojbarg yozib ochilib turgan

¹¹² Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – Б.23.

gulga o'xshaydi.

7. Turli xil ro'zg'or buyumlari, daraxtlar va boshqa narsalarga o'xshatish va tasvirlash yo'li bilan o'xshatish: „anorgul“ (naqsh), „bulbulzor“, (naqsh), „gultojixo'roz“ (naqsh), „toj“ (naqsh), „tuya bo'yin“ (naqsh), „tumorcha“ (naqsh), „osh pichoq“ (naqsh), „pichoq“ (naqsh), „qumg'on“ (naqsh). Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, mazkur birliklarning barchasi naqsh nomlari yoki uning elementlarini tashkil etuvchi birliklardir.

II. Xoslash tamoyili. Narsalarga nom qo'yishning bu tamoyilida narsaning nimaga xoslab ishlanishi ko'zda tutiladi. Masalan, beshik tuvak, gul tuvak, somovor tovoq, to'y tovoq; Chunonchi, xoslash tamoyilida buyumlarga ularning qanday maqsadda qo'llanishiga qarab ham nom beriladi. Jumladan, qatiq kosa (Rishton), don kosa (Rishton), suv kosa (Rishton), sharbat kosa (Rishton), nisholda kosa (Rishton), shinni kosa (Rishton), qaymoq kosa (Rishton) – piyoladan kattaroq kosadan kichikroq hajmdagi kosa nomi. Qaymoq solish uchun mo'ljal-langanligi uchun aynana shu nom bilan ataladi.

III. Nisbat berish tamoyili. Hunarmandlar turmush uchun kerakli narsalarni yasashda, o'zlari ixtiro etishlaridan tashqari, boshqalar, boshqa xalqlar tomonidan ishlangan narsa nusxalariga ham o'xshatib yasab, u buyumni o'sha xalq nomi bilan ataydilar yoki narsani boshqa biror qabila yo xalqning didiga moslab ishlaydilar. Bu holatda narsa nomi ham shu qabila yoki xalq nomiga nisbat beriladi. Bundan tashqari, bir shahar ustalari tomonidan yaratilgan biror yangilik boshqa joylarga ham tarqalib, u yerlarda yasalgan narsalarning nomida o'sha shaharga nisbat beriladi. Kulollar leksikasida nisbat berish tamoyili quyidagi turlarga ega: Arabiy naqsh (*qabila va xalq nomiga nisbat berish.*) Joyga nisbat berish. Toshkent piyolasi, Angren tuprog'i, Rishton tovog'i

IV. Materialiga ko'ra nomlash tamoyili. Bu tamoyilga muvofiq, narsalarga o'zi yasalgan xomashyoning nomi asos qilib olinadi. Bunda, ko'pincha, turi ko'p narsalarning birini boshqasidan farqlab ko'rsatish ko'zda tutiladi. Masalan; materialiga ko'ra: sopol kosa, chinni kosa; ser to'zg'oq loy, sirli idish, sirsiz idish besir idish – angob va teva sir berilmagan sopol idish; asosan xum, ko'za, kir tog'ora, quvur, gul tuvak, qo'shquloq kabi, sirsiz idishlar. Mis suvi – Misni yanchib, ezib, xosil etilgan poroshogidan qilingan ayron. Bu bilan kulollar xom idishlarga yashil tusli gul chizadilar.

V. Ovoziga ko'ra nomlash tamoyili: hushtak(*husht+ak*), qulqulcha(*qul-qul+cha*);

VI. Vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili. Kulollarlar ish jarayonida ishlatiladigan mehnat qurollarining turlari turlichadir. Ba'zan bir qurol uning

vositasi bilan yasaluvchi buyumning turli o'rinlarda ishlashga moslab har xil formalarda yasaladi va u qurollarga shu vazifasiga ko'ra nom beriladi. Chunonchi, sepoya -tojikcha so'z bo'li, uch oyoqli degan ma'noni anglatadi. Tayyor bo'lgan xomashyoni sepoyaga taklab otashdonga yuklashadi. Sepoyaning bu jaraayondagi vazifasi shuki, yarim tayyor mahsulotlar bir-biriga yopishmasligi uchun ishlatiladi. Sepoyaning ustiga bir dona kosani ichki yuzi bilan to'ntaradilar. So'ng kosaning poshnasiga yana bir sepoya qo'yib, uning ustiga yana bitta kosa qo'yiladi. Shu tariqa jarayon davom etadi.

VII. O'rniga ko'ra nomlash tamoyili. Bu turga kiruvchi terminlar asosan kulolchilik buyumlari emas, balki kulolchilik buyumlarini pishiruvchi xumdonning tarkibiy qismlarini anglatuvchi birliklardir. Jumladan, Xumdonning o'chog'iga ketma-ket ikki og'iz teshik qilinadi. Kulollar tilida bu teshiklar murg'ak (mo'richa ma'nosida) atamasi bilan nomlanadi. Bu qo'yilgan teshiklarning tepasini teva murg'ak, pastini esa tak murg'ak termini bilan nomlaydilar. Ba'zi kulollar teva o'choq og'zi va pastki o'choq og'zi terminini ishlatadilar. Yoki tak sir – sopol idishlarga gul solmasdan ilgari berilgan turli tUSDagi (yo oq, yo sariq, yo qizil, yoki ko'kish) bo'yoq. Buning suyuqligi gilvo'ta yoki loyadan murak kabidir. Idishlarga tak sir berib bo'lib, ustidan naqsh, uning ustidan teva sir beradilar

VIII. Tashqi shakl va holatiga ko'ra nomlash tamoyili. Kulollar o'zlari yasagan buyumlarga o'z tashqi shakl tuzilish va holatiga ko'ra nom berishdan tashqari boshqa narsalarning tashqi shakl, tuzilishi va holatiga o'xshatib ham nom beradilar. Chunonchi, o'rdak shaklidagi dekorativ buyumlardan birining nomi, bunga nom berish tashqi ko'rinishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

IX. O'Ichoviga ko'ra nomlash tamoyili. Bu tamoyilda sopol buyumlarning yo og'irligi, yoki sopol idishlarga qancha og'irlikda narsa sig'ishi ko'zda tutiladi. Chunonchi: *Charxi tovoq* turlicha kattalikda bo'lib, har qaysi turining belgi va xususiyatiga muvofiq maxsus nomi bor. Charxining eng katta turiga 4—5 kilogramm guruchning oshi (palovi) sig'adi va bunda 8—10—12 kishi ovqat(solib) yeydi. Buning yuzi va labi sirli, guldor, orqasi sirsiz bo'ladi. Bu idishni *arava charxi* (mubolag'a bilan „arava g'ildiragiday“, „katta“ ma'nosida), *Samovar tovoq / samavar tavaq*, ya'ni samovarda (choyxonada) ko'pchilik bo'lib ovqat solib yeyiladigan tovoq ma'nosida), yoki *katta tovoq* termini bilan ham ataygan.

O'rta tovoq yoki *o'rta charxi* deb, 2—2,5 kilogramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli, guldor tovoqni; *xonaki* yoki *xonaki charxi* (xonadonda ishlatiladigan charxi) deb, 1 kilogramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli,

guldor tovoqni; *to'y tovoq* (to'ylarda 2—3 kishiga osh suzib beriladigan tovoq) yoki *nim charxi* deb, 600—700 gramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli, guldor tovoqni; *lappak tovoq* yoki *ma'raka tovoq* (*ma'raka tavaq*) deb, 500 gramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli, guldor tovoqni aytadi. Andijon kulollari katta, „*samovar tovoq*» dan tashqari, yana bir necha turli tovoq ishlab chiqaradilar. Ularni quyidagi ikki nom ostida yuritiladi:1) *uy tovoq*. Bunda 4—5 kishi osh yeydi (*xonaki, xonaki charxi* deb atagan edi); 2) *to'y tovoq* (2—3 kishi ovqat solib eydi; *lappak*. yoki *ma'raka tovoq* atagan edi) kabi turlari mavjud.

X. Jarayon, harakat e'tibori bilan nom berish tamoyili. Bu tamoyilda termin tuzishda jarayon, harakat nima vositasi bilan yuzaga kelishi, oqibat natijada nima narsa xosil etilishi asosga olinadi va ularga berilgan nomlar quyidagilardir: Kasb-hunar leksikasida ish jarayoniga ko'ra berilgan nomlar leksikaning katta bir qismini tashkil etadi. Jumladan, *loy tepish, loy tarosh, tobini olish, zulma ochish, zulma tortish, tobga kelish, poshna chiqarish* kabilardan iborat.

XI. Urf-odatlar bilan bog'lab nom berish tamoyili. *To'y tovoq, to'y lagan, ma'rakat tovoq. Sarishoyak* – 19-asrlarda vodiylar kelinlarning sepi uchun maxsus yasalgan sopol idish. Undan kelinlar taroq, oyna, surma va shu kabi buyumlarni qo'yishda foydalanganlar.

XII. Mifik tushunchalar va afsonalar bilan bog'lab nomlash tamoyili. Avvallari naqqoshlarning tafakkurida har xil mifik tushunchalar va diniy ideologiya ta'siri kuchli edi. Shuning orqasida ularning leksikasida mifik tushunchalar, diniy e'tiqod va afsonalarni ifoda etuvchi so'z va iboralar ham anchagina o'rin olgan edi. Bu holat sopol idishlarga tushirilgan naqshlarda ham ko'rinadi. Masalan, ilgari naqqoshlar, biror kishining tepasiga kelib qo'nsa, u kishi podshohlikka yoki zo'r davlatga muyassar bo'ladi, deb sanalgan — *humo* nomli afsonaviy qushning tasvirini sopol idishlarning badiiy naqshi motiviga kiritar edilar. Bu tasvirning takrorlanishi bilan islomning yangi bir xilini o'yib, uni *islami humo* deb yuritardilar; ilgari ko'pincha savdogarlar, amaldorlar bu naqshni idishga chizdirar va „yaxshi niyat“ bilan deb o'z uylarida asrar edilar. Yoki butun Farg'ona vodiysiga keng tarqalgan „Qalampir“ naqshiga ham oid necha asrlik xalq orasida shunday bir afsona bor. Vodiylarga bir necha asrlar oldin o'lat kaslligi tarqagan, ko'pchilikning yostig'ini quritgan, unga shifo bo'lib qalampir xizmat qilgan. Shuning uchun millatimizga xos barcha xalq amaliy bezak san'atida bu naqsh turini uchratish mumkin. Vodiylardagi do'ppido'zlar faqat qalampir naqshidan foydalanadilar. Odamlar esa uni e'zozlab boshiga ko'tarib kiyib yuradilar. Nafaqat do'ppido'zlar, balki, kulollar, kashtachilar, adraschilar ijod

namunalarida bu naqsh keng ko'lamda qo'llanadi. Quyidagi jadval orqali kulolchilik terminlarining nomlanish tamoyillarini umumlashgan holda ko'rishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki, terminlar ma'nosini bilish va ular ustida jiddiy lingvistik tadqiqotlar olib boorish, bizga mazkur terminlarning yuzaga kelishi, shakllanishi, nomlanish tamoyili, etimologik kelib chiqishi kulolchilik terminlarning milliy madaniyatimizning bir bo'laki asl holda saqlab qolish va kelgusi avlodga shu holda yetkazish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.В. Об основном словарном фонде и его словообразующей роли в истории языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография. - Москва: Наука, 1977. - С.47.

2. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – Б.23.

3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. -382 б.

4. Нафасов Т. Ўзбек ҳунармандчилиги ва ўзбек топонимияси // Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шаҳри маҳалла ва кўча номлари. – Тошкент: Маънавият, 2008. –бет

5. Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент:Ўқитувчи, 1968. - 32 б.